
"Mash'al" mahallasining yangi binosi foydalanishga topshirildi

Keyingi yillarda mamlakatimizda ko'plab yangi va zamonaviy inshootlar qad rostlab, yurtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shayotir. Xususan, Farg'ona shahrida ham biri-biridan muhtasham binolar Davlatimiz mustaqilligining 31 yilligi bayrami oldidan foydalanishga topshirilmoqda.

Shulardan biri "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'ini binosidir. Zamonaviy loyihalar asosida barpo etilgan va barcha sharoitlarga ega bo'lgan ushbu bino mahallada istiqomat qiluvchi 2834 ta oila uchun ajoyib bayram tuhfasini bo'ldi.

Binoning ochilish marosimida viloyat mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i Bahodirjon Xoliqov, Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar IIOFMB boshlig'i, 3-sektor rahbari Dilmurodjon Asqarovlar ishtirok etishib, yig'ilganlarni zamonaviy muassasaning foydalanishga topshirilayotganligi munosabati bilan muborakbod etdilar.

Mahalla instituti faoliyatini yanada rivojlantirish, qolaversa "Mash'al" mahalla fuqarolar yig'inining binosi ham bu yerda faoliyat olib borayotgan jamoaning ish tartibi ham boshqa mahallalarimizga o'rnak bo'lishi kerakligi shahar hokimi tomonidan ta'kidlandi.

Marosimda qayd etilganidek, Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning asl maqsadi mamlakatni ertangi kundagi rivojlanishning muhim bosqichi, avvalo, mahalla institutining faoliyatini takomillashtirish va nufuzini yanada yuksaltirishga qaratilgan. Yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, yurtimiz tinchligi hamda osoyishtaligini ta'minlash, xalqimiz turmush farovonligini yanada oshirish masalalarining yechimi aynan mahalla tuzilmasi faoliyatida mujassamlashgan.

Bino davlat xususiy-sherikchilik asosida zamonaviy ko'rinishda qurilgan bo'lib, mahalla fuqarolar yig'ini raisi, hokim yordamchisi, huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi uchun ajratilgan alohida xonalar bugundan boshlab fuqarolar qabuliga muntazir.

2022-07-23 02:08:31